

№ 07-5/39  
2026 y. " 4 " iyun

“TASDIQLANGAN”

“ANOR BANK” AJ  
Kuzatuv kengashining  
2026-yil “ 26 ” may 25 25 sonli yig'ilish Bayoni

Kuzatuv Kengashi Raisi  
Sh. Nosirov



**«ANOR BANK» AJda kontragentlarni tekshirishga oid  
YO‘RIQNOMA**

## I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo'riqnoma «ANOR BANK» AJ (*keyingi o'rinlarda – Bank deb yuritiladi*) tomonidan kontragentlar bilan hamkorlikni o'rnatish, davom ettirish va tugatish jarayonlarida korrupsiyaviy xatarlarni oldini olish maqsadida ularni majburiy tekshirishning asosiy talablari, tartibi va usullarini belgilaydi.

2. Kontragentlarni tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Bank xodimlarining shaxsiy manfaatdorligi va manfaatlar to'qnashuvidan kelib chiqadigan korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish;
- insofsiz yoki yuqori korrupsiyaviy xavfli kontragent bilan hamkorlik xatarini bartaraf etish;
- kontragentning shartnomaviy majburiyatlarni bajarish qobiliyatini obyektiv baholash;
- Bank manfaatlarini himoya qilish va qarorlarni qabul qilishda tegishli ehtiyotkorlikni ta'minlash.

3. Ushbu Yo'riqnoma Bankning barcha shartnomaviy munosabatlari va boshqa hamkorlik shakllariga (shu jumladan, investitsiyalar, hayriya shartnomalari va boshqalar) tatbiq etiladi.

4. Bank ushbu Yo'riqnomani barcha yangi kontragentlarga nisbatan, shuningdek amaldagi kontragentlarga nisbatan kamida bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

5. Kontragent tekshiruv natijalari bo'yicha xulosani olmasdan turib kontragentlar bilan shartnomani imzolash va to'lovlarni amalga oshirish yoki qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

6. Kontragentlar tekshiruv quyidagi kontragentlarga nisbatan amalga oshirilmasligi mumkin:

- kommunal va boshqa shu kabi xizmatlarni (shu jumladan, elektr, gaz, issiqlik, muhandislik-texnika, suv ta'minoti, suv chiqarish, oqava suvlarni tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni utilitatsiya qilish va h.k.) yetkazib beruvchi hisoblangan kontragentlar;
- O'zbekiston Respublikasining tabiiy monopoliyalari hisoblangan kontragentlar.

## II. Terminlar va atamalar

7. Ushbu Yo'riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

**ijrochi** – shartnoma bo'yicha ish yoki xizmatni bajaruvchi, tovar yetkazib beruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs;

**kontragent** – tashkilot bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan (*mehnat munosabatlari bundan mustasno*) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

**kontragent/benefitsiar egasi (yakuniy benefitsiar)** kontragentning xususiy egasi bo'lgan yoki ushbu kontragent uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, qabul qilinayotgan qarorlarga ta'sir ko'rsatish yoki boshqacha tarzda uning harakatlarini bevosita yoki bilvosita nazorat qilish huquqi yoki imkoniyatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

**korrupsiyaviy harakatlar** – Bank xodimi tomonidan bevosita yoki bilvositashaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lidaharakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinisdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun

to'lovlar undirish (*pora olish*) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**manfaatlar to'qnashuvi** – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

**maxfiy axborot** – bu olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoki foydalanishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki axborot egasining ichki hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborot;

**tashabbuskor** – Bank tarkibiy bo'linmasi;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – Bank xodimi, uning yaqin qarindoshi yoki xodim bilan bog'langan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan (*shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari*) pul mablag'lari, moddiy va nomoddiy qadriyatlar, boshqa mulk, foyda, imtiyoz va afzalliklar ko'rinishidagi shaxsiy foyda olish.

**yaqin qarindoshlar** – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

### III. Tekshiruv tamoyillari

8. Bank kontragentlarni tekshirishda riskga asoslangan yondashuvni qo'llaydi.

9. Asosiy tamoyillar va ularning mazmuni:

– **Holislik va mustaqillik** — tekshiruv shaxsiy yoki tijorat aloqalaridan xoli holda amalga oshiriladi;

– **Mutanosiblik** — tekshiruv hajmi va chuqurligi kontragentning korrupsiyaviy xavf darajasiga hamda shartnomaning xususiyatlariga mos kelishi kerak;

– **Doimiylik** — korrupsiyaga qarshi tekshiruv shartnoma tuzish bosqichida tugamaydi, balki hamkorlik davomida monitoring va qayta tekshirish shaklida davom ettiriladi;

– **Maxfiylik** — tekshiruv jarayonida olingan barcha ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi va faqat xizmat maqsadlarida ishlatiladi;

– **Hujjatlashtirish** — tekshiruvning barcha bosqichlari, so'rovlar, javoblar va qarorlar yozma yoki elektron shaklda qayd etiladi.

### IV. Kontragentlarni korrupsiyaviy xavf darajasi bo'yicha tasniflash

10. Barcha kontragentlar korrupsiyaviy xavf darajasiga ko'ra uch toifaga bo'linadi: past, o'rta va yuqori xavf. Xavf darajasi kontragentning xususiyati, shartnoma summasi, faoliyat turi, geografik joylashuvi, hamkorlik xarakteri va boshqa omillarga asosan aniqlanadi va Ushbu hujjatning 1- ilovasiga asosan tasniflanadi.

11. Kontragentning korrupsiyaviy xavf darajasi quyidagi tartibda aniqlanadi va tasniflanadi:

– **Past korrupsiyaviy xavf** — bu standart, oddiy hamkorlik shakllari bo'lib, korrupsiyaviy xatarlar minimal darajada bo'lgan kontragentlarga nisbatan qo'llaniladi. Bunday kontragentlar, odatda, davlat tomonidan tartibga solinadigan xizmatlarni ko'rsatuvchi tabiiy monopoliyalar,

kommunal xizmatlar yetkazib beruvchilari va uzoq muddatli hamkorlik tajribasiga ega bo'lgan ishonchli tashkilotlar hisoblanadi.

– **O'rta korrupsiyaviy xavf** — o'rtacha darajada korrupsiyaviy xatarlarga ega bo'lgan kontragentlarga nisbatan qo'llaniladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- a) sug'urta kompaniyalari;
- b) mahalliy tijorat banklari;
- c) auditorlik va baholash kompaniyalari (katta summalardan tashqari);
- d) to'lov tizimlari va yirik ijarachilar.

– **Yuqori korrupsiyaviy xavf** — eng yuqori darajada korrupsiyaviy xatarlarga ega bo'lgan kontragentlarga nisbatan qo'llaniladi. Bunday toifaga quyidagilar kiradi:

- a) vositachilar, agentlar, brokerlar, maslahatchilar va boshqa uchinchi shaxslar orqali ishlaydigan kontragentlar (har qanday shaklda);
- b) norezidentlar (xalqaro tijorat banklari, xorijiy sug'urta va konsalting kompaniyalari);
- c) 500 million so'mdan yuqori summali shartnomalar;
- d) qurilish, rekonstruksiya, yuqori texnologiyali jihozlar yetkazib berish va IT-xizmatlar ko'rsatish sohasidagi kontragentlar;
- e) Bank xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari bilan affillanganlik belgilari mavjud bo'lgan kontragentlar;
- f) davlat organlari va davlat ishtirokidagi kompaniyalar bilan hamkorlik qiluvchi kontragentlar.

**12.** Vositachilar, agentlar, brokerlar va konsalting xizmatlari ko'rsatuvchi barcha kontragentlar doimiy ravishda yuqori korrupsiyaviy xavf toifasiga kiritiladi. Ular uchun past yoki o'rta xavf darajasi qo'llanilishi mumkin emas.

**13.** Xavf darajasiga qarab tekshiruvning minimal, kengaytirilgan yoki chuqur hajmi qo'llaniladi. Tekshiruv hajmi quyidagicha belgilanadi:

**14.** Minimal hajm (past xavf darajasi):

- ta'sis hujjatlari va vakolatlarni tekshirish;
- yuridik shaxslarning yagona davlat reestrída mavjudligini tekshirish;
- kontragentdan manfaatlar to'qnashuvi yo'qligi to'g'risidagi deklaratsiyani olish.

**15.** Kengaytirilgan hajm (o'rta xavf darajasi):

- ochiq manbalarda obro' va salbiy ma'lumotlarni chuqurroq tahlil qilish;
- Bank xodimlari bilan affillanganlikni tekshirish;
- moliyaviy holat va oldingi tajribani qo'shimcha baholash.

**16.** Chuqur hajm (yuqori xavf darajasi):

- yakuniy benefitsiar egalarini to'liq identifikatsiya qilish va tekshirish;
- korrupsiyaviy huquqbuzarliklar tarixini chuqur tahlil qilish;
- qo'shimcha hujjatlar va tavsiyanomalarni talab qilish;
- zarur bo'lganda tashqi ma'lumotlar bazalari va ekspertlarni jalb qilish.

## **V. Tekshiruvni boshlash tartibi, tekshiruv uchun talab qilinadigan hujjatlar va axborot manbalari**

**17.** Kontragentlarni korrupsiyaga qarshi tekshirish hamkorlikni o'rnatish yoki shartnoma tuzish jarayonida, tashabbuskor bo'linma tomonidan taklif kelib tushgandan keyin, biroq shartnoma tuzish yoki hamkorlikni davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar amalga oshiriladi.

**18.** Tekshiruvni amalga oshirish uchun asosiy mas'uliyat Icki nazorat Departamenti va Komplayens-nazorat boshqarmasi zimmasiga yuklatiladi. Tashabbuskor bo'linma tekshiruvni o'z vaqtida boshlash, zarur hujjatlar va ma'lumotlarni to'liq taqdim etish uchun javobgar hisoblanadi.

**19.** Icki nazorat tizimi bank aktivlarini himoya qilish va talablarga rioya qilish uchun zaruriy ekspertiza, pul mablag'lari manbalarini tekshirish va operatsiyalarni muntazam monitoringini o'z ichiga oladi:

**Tegishli tekshiruv (KYC):** Ichki nazorat tizimi mijozni bilish (KYC) choralarni ko'rishni ta'minlaydi, jumladan, benefisiar egalarni aniqlash va obro'sini tekshirish.

**Muvofiqlik:** kontragentlar tomonidan terrorizmni moliyalashtirish va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish maqsadida ichki nazorat qoidalariga rioya etilishini tekshirish.

**Tranzaksiya monitoringi:** kontragent faoliyatini tizimli tahlil qilish, ayniqsa, noodatiy operatsiyalarni amalga oshirish, nazoratni kuchaytirishni talab qiladi.

**20.** Kontragent tekshiruvi Komplayens-nazorat boshqarmasi mas'ul xodimi tomonidan tashabbuskor bo'linmadan hujjatlar olingan sanadan 5 (besh) kundan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

**21.** Tekshiruvni belgilangan muddatlarda o'tkazish imkoni bo'lmagan taqdirda uning davomiyligi Komplayens-nazorat boshqarmasi rahbari bilan kelishilgan holda 3 (uch) ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatga yozma shaklda uzaytirilishi mumkin.

**22.** Shoshilinch tekshiruv o'tkazish zaruriyati mavjud bo'lgan hollarda tashabbuskor bo'linma shoshilinchlik asoslarini va zarur muddatlarni ko'rsatgan xizmat xati bilan Komplayens-nazorat boshqarmasiga murojaat qiladi. Shoshilinch tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qaror Komplayens-nazorat boshqarmasi rahbari tomonidan qabul qilinadi.

**23.** Kontragentni tekshirish uchun hujjatlarni to'plash va taqdim etish uchun tashabbuskor bo'linma mas'ul hisoblanadi.

**24.** Kontragentdan tekshirish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

- kontragentning yakuniy benefisiar egalari to'g'risidagi ma'lumotnomasi;
- kontragentning ta'ris hujjatlari, litsenziyalari va boshqa huquqiy hujjatlar nusxalari;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlari (mavjud bo'lsa);
- ushbu Yo'riqnomaning 2-ilova, 3-ilova va 4-ilovasiga muvofiq to'ldirilgan Due Diligence anketasi (Minimal, Kengaytirilgan yoki Chuqurlashtirilgan Due Diligence anketasi).

**25.** Tekshiruv hajmi kontragentning korrupsiyaviy xavf darajasiga muvofiq belgilanadi. Past xavf darajasidagi kontragentlar uchun Minimal Due Diligence anketasi, o'rta xavf darajasidagi uchun Kengaytirilgan Due Diligence anketasi, yuqori xavf darajasidagi uchun esa Chuqurlashtirilgan Due Diligence anketasi talab qilinadi.

**26.** Kontragentdan olingan barcha hujjatlar kontragentning rahbariyati tomonidan yoki notarial idora (ko'zda tutilgan holatlarda) tomonidan tegishli tarzda tasdiqlangan bo'lishi lozim. Hujjatlar amal qilayotgan bo'lishi, davlat reestrlari hujjatlari esa tekshiruv sanasiga qadar 30 (o'ttiz) kundan ortiq bo'lmagan muddatda olingan bo'lishi kerak.

**27.** Kontragentni majmuaviy tekshirish, uning benefitsiar egalari, rahbarlari va faoliyati to'g'risida yaxlit va xolis fikrga ega bo'lish, shuningdek, taqdim etilgan hujjat va ma'lumotlarning ishonchliligini baholash uchun amalga oshiriladi.

**28.** Tekshirish doirasida Komplayens-nazorat boshqarmasi mas'ul xodimi quyidagilarni tahlil qiladi:

- kontragent tomonidan taqdim etilgan axborot va hujjatlar;
- ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar;
- rasmiy so'rovnomalar orqali olingan hujjatlar;
- Bankning ichki resurslari (kontragentlar reyestri, manfaatlar to'qnashuvi reyestri va boshqalar).

**29.** Zaruriyat bo'lganda Komplayens-nazorat boshqarmasi mas'ul xodimi kontragentni joyiga chiqib o'rganishi mumkin. Bunday tekshiruv o'tkazish uchun Komplayens-nazorat boshqarmasi rahbaridan tegishli ruhsat olinishi lozim.

## **VI. Qaror qabul qilish tartibi**

**30.** Kontragentlarni korrupsiyaga qarshi tekshirish natijalari bo'yicha Komplayens-nazorat boshqarmasi usbu hujjatning 5-ilovasiga asosan rasmiy xulosa Chek-list tayyorlaydi.

**31.** Xulosa quyidagi uch turdan birida bo'lishi mumkin:

- «Hamkorlikka tavsiya etiladi»;
- «Qo'shimcha nazorat choralarini qo'llagan holda hamkorlikka tavsiya etiladi»;
- «Hamkorlikka tavsiya etilmaydi» (aniqlashtirilgan asos bilan).

**32.** Past va o'rta xavf darajasidagi kontragentlar bo'yicha xulosa Komplayens-nazorat boshqarmasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi va tashabbuskor bo'linmaga yuboriladi.

**33.** Yuqori xavf darajasidagi kontragentlar bo'yicha xulosa quyidagi tartibda ko'rib chiqiladi:

- Komplayens-nazorat boshqarmasi rahbari tomonidan dastlabki ko'rib chiqish;
- zarur hollarda kollegial vakolatli organlarda muhokama qilish;
- yakuniy qaror vakolat doirasidan kelib chiqqan holda Bank Kuzatuv Kengashi yoki Boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi.

**34.** «Hamkorlikka tavsiya etilmaydi» xulosasi chiqqan taqdirda tashabbuskor bo'linma bu haqda asoslantirilgan xulosani oladi va shartnoma tuzish imkoniyatini qayta ko'rib chiqadi.

**35.** Tashabbuskor bo'linma xulosa bilan rozi bo'lmagan taqdirda, u 3 (uch) ish kuni ichida Komplayens-nazorat boshqarmasiga yozma asoslantirilgan e'tiroz bildirishi mumkin. E'tiroz Komplayens-nazorat boshqarmasi rahbari tomonidan ko'rib chiqiladi va zarur hollarda qo'shimcha tekshiruv o'tkaziladi.

**36.** Qo'shimcha nazorat choralari qo'llagan holda hamkorlikka ruxsat berilgan hollarda, ushbu choralar shartnomada yoki alohida kelishuvda majburiy tartibda aks ettiriladi.

**37.** Qo'shimcha nazorat choralari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- shartnomaga qo'shimcha nazorat mexanizmlarini kiritish;
- monitoring oralig'ini oshirish;
- to'lov shartlarini qattiqlashtirish (dastlabki to'lovlarini cheklash, bosqichma-bosqich to'lash va h.k.);
- qabul qilish jarayonida (ishlar, xizmatlar yoki tovarlarni qabul qilishda) Komplayens-nazorat boshqarmasi vakilining ishtirok etishi;
- moliyaviy hujjatlar (hisob-fakturalar, aktlar, to'lov topshiriqnomalar va boshqalar) bilan ishlashda Komplayens-nazorat boshqarmasi vakilining vizasi yoki roziligini talab qilish;
- boshqa zarur nazorat choralari.

**38.** Yuqoridagi qo'shimcha nazorat choralari ro'yxat to'liq emas va boshqa qo'shimcha nazorat choralari ham qo'llanilishi mumkin.

**39.** Qabul qilingan qaror (tasdiqlangan xulosa) shartnoma tuzish, to'lovlarni amalga oshirish va hamkorlikni davom ettirish uchun majburiy hujjat hisoblanadi.

## **VII. Monitoring va qayta tekshirish**

**40.** Kontragentlar bilan hamkorlik davomida ularning korrupsiyaviy xavf darajasi doimiy monitoring qilinadi va zarur hollarda qayta tekshirish o'tkaziladi.

**41.** Kontragentlarni qayta tekshirish chastotasi ularning xavf darajasiga qarab belgilanadi:

- yuqori xavf darajasidagi kontragentlar har yili kamida bir marta qayta tekshiriladi;
- o'rta xavf darajasidagi kontragentlar har ikki yilda kamida bir marta qayta tekshiriladi;
- past xavf darajasidagi kontragentlar har uch yilda bir marta qayta tekshiriladi.

**42.** Rejadan tashqari qayta tekshirish quyidagi hollarda majburiy ravishda o'tkaziladi:

- kontragentning rahbariyati, benefitsiar egalari yoki ustav kapitalidagi ulushlar sezilarli darajada o'zgarganda;
- kontragent haqida salbiy ma'lumotlar, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yoki boshqa xatarlarni ko'rsatuvchi axborot paydo bo'lganda;
- shartnoma shartlari, summasi yoki hamkorlik xususiyati sezilarli darajada o'zgarganda;
- Komplayens-nazorat boshqarmasi yoki Bank rahbariyati topshirig'i bilan;
- boshqa asosli sabablarda.

**43.** Qayta tekshirishni tashkil etish va o'tkazish uchun asosiy mas'uliyat Komplayens-nazorat boshqarmasi zimmasiga yuklatiladi. Tashabbuskor bo'linma zarur hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishda yordam beradi.

**44.** Qayta tekshirish natijalari bo'yicha yangi xulosa (chek-list) tayyorlanadi. Agar yangi xatarlar aniqlansa, hamkorlik shartlari qayta ko'rib chiqiladi yoki qo'shimcha nazorat choralari joriy etiladi.

**45.** Monitoring va qayta tekshirish natijalari Kontragentlarni korrupsiyaga qarshi tekshirish reyestrda majburiy tartibda aks ettiriladi.

### **VIII. Tekshiruv natijalarini hujjatlashtirish va mas'uliyat**

**46.** Kontragentlarni korrupsiyaga qarshi tekshirish natijalari bo'yicha Komplayens-nazorat boshqarmasi ushbu Yo'riqnomaning 5-ilovasida belgilangan shaklda rasmiy xulosa (chek-list) tuzadi. Xulosaga tekshiruv davomida olingan barcha hujjatlar, tahlillar va qo'shimcha materiallar ilova qilinadi.

**47.** Rasmiy xulosa (chek-list) kontragentning korrupsiyaviy xavf darajasini, aniqlangan xavf-xatarlarni, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalarni hamda hamkorlikka oid yakuniy tavsiyani o'z ichiga oladi.

**48.** Tekshiruv natijalari bo'yicha rasmiy xulosa tashabbuskor bo'linmaga taqdim etiladi va shartnoma tuzish, hamkorlikni davom ettirish yoki to'lovlarni amalga oshirish to'g'risidagi qaror qabul qilishda majburiy hisobga olinadi.

**49.** Bank markazlashgan Kontragentlarni korrupsiyaga qarshi tekshirish reyestrini yuritadi. Reyestrda har bir tekshiruv natijasi (sana, xulosa turi, xatar darajasi va tavsiyalar) Yo'riqnomaning 6-ilovasida keltirilgan shaklda kiritiladi.

**50.** Kontragent tekshiruv natijalari, xulosalar, chek-listlar, taqdim etilgan hujjatlar va boshqa materiallar shartnoma munosabatlari tugagandan keyin kamida 5 (besh) yil saqlanadi.

**51.** Barcha tekshiruv materiallari maxfiy axborot hisoblanadi. Ular faqat xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan hollarda va faqat vakolatli xodimlar tomonidan ishlatilishi mumkin. Uchinchi shaxslarga oshkor qilish taqiqlanadi.

**52.** Tekshiruv natijalarini hujjatlashtirish, reyestrni yuritish va materiallarni saqlash Komplayens-nazorat boshqarmasi zimmasiga yuklatiladi.

**53.** Bank xodimlari kontragentlarni korrupsiyaga qarshi tekshirishni o'tkazmaslik, o'z vaqtida o'tkazmaslik yoki rasmiyatchilik bilan cheklanishi xizmat tekshiruvlarini amalga oshirishga asos hisoblanadi va intizomiy javobgarlikka tortilishga sabab bo'ladi.

**54.** Manfaatlar to'qnashuvi yoki korrupsiyaviy xavf-xatarlar haqidagi ma'lumotni yashirish, shuningdek, tekshiruv natijalarini soxtalashtirish og'ir intizomiy jazoga, shu jumladan mehnat shartnomasini bekor qilishga olib keladi.

**55.** Javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning Ichki mehnat tartib-qoidalariga muvofiq qo'llaniladi.

### **IX. Yakuniy qoidalar**

**56.** Ushbu Yo'riqnoma Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

**57.** Kontragentlarni tekshirish jarayoni doimiy ravishda Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan monitoring qilib boriladi.

**58.** Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgargan taqdirda yoki kontragentlarni tekshirish jarayonini takomillashtirish zarurati tug'ilganda qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi lozim.

**59.** Mazkur Yo'riqnoma qoidalarini buzishda aybdor xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bank ichki me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan tartib va asosda intizomiy va boshqa javobgarlikka tortilishi mumkin.

**Kiritildi:**

Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig'i

D. Xushnazarov

**Kelishildi:**

Boshqaruv raisi

Sh. Akramov

Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari

E. Nadjimitdinov

Boshqaruv raisi o'rinbosari

M. Nurutdinova

Boshqaruv raisi o'rinbosari

E. Kadirov

Boshqaruv raisi o'rinbosari

A. Saydullayev

Boshqaruv raisi o'rinbosari

S. Xan

Boshqaruv raisi o'rinbosari

M. Avazov

Yuridik boshqarma boshlig'i

T. Zanaxov

Boshqaruvchi direktor

A. Bakiyev

Bosh buxgalter

U. Babayev

Ichki audit departamenti direktori

S. Usmanov

Ichki nazorat departamenti direktori

M. Pulatova

Risk menejmenti departamenti direktori

D. Ibragimova

*«ANOR BANK» AJda kontragentlarni  
tekshirishga oid yo'riqnomaga  
1-ilova*

<b>№</b>	<b>Kontragent kategoriyasi</b>	<b>Korrupsiyaviy xavf darajasi</b>	<b>Tekshiruv turi</b>	<b>Qayta tekshirish chastotasi</b>	<b>Qo'llaniladigan Due Diligence anketasi</b>
1	Tovarlarni, ishlar va xizmatni etkazib beruvchilarni	past	Minimal	Har 3 yilda bir marta	Minimal Due Diligence anketasi
		o'rta	Kengaytirilgan	Har 2 yilda	Kengaytirilgan Due Diligence anketasi
		yuqori	Chuqurlashtirilgan	Har yili	Chuqurlashtirilgan Due Diligence anketasi
2	Qurilish va pudrat tashkilotlari	yuqori	Chuqurlashtirilgan	Har yili	Chuqurlashtirilgan Due Diligence anketasi
3	Axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilar	yuqori	Chuqurlashtirilgan	Har yili	Chuqurlashtirilgan Due Diligence anketasi
4	Ijarachilar (ofis, filial, bankomatlar va boshqalar)	o'rta	Kengaytirilgan	Har 2 yilda	Kengaytirilgan Due Diligence anketasi
5	Sug'urta kompaniyalari	o'rta	Kengaytirilgan	Har 2 yilda	Kengaytirilgan Due Diligence anketasi
6	Mahalliy tijorat banklari	o'rta	Kengaytirilgan	Har 2 yilda	Kengaytirilgan Due Diligence anketasi
7	Xalqaro banklar (korrespondent banklar)	yuqori	Chuqurlashtirilgan	Har yili	Chuqurlashtirilgan Due Diligence anketasi
8	To'lov tizimlari va protsessing kompaniyalari	yuqori	Chuqurlashtirilgan	Har yili	Chuqurlashtirilgan Due Diligence anketasi
9	Birjalar va brokerlik kompaniyalari	o'rta	Kengaytirilgan	Har 2 yilda	Kengaytirilgan Due Diligence anketasi
10	Auditorlik kompaniyalari	o'rta	Kengaytirilgan	Har 2 yilda	Kengaytirilgan Due Diligence anketasi
11	Baholash kompaniyalari	o'rta	Kengaytirilgan	Har 2 yilda	Kengaytirilgan Due Diligence anketasi
12	Konsalting kompaniyalari / avtosalonlardagi agentlar (bank nomidan avtokredit taklif qiluvchilar)	yuqori	Chuqurlashtirilgan	Har yili	Chuqurlashtirilgan Due Diligence anketasi
13	Yuridik va konsalting firmalari	yuqori	Chuqurlashtirilgan	Har yili	Chuqurlashtirilgan Due Diligence anketasi

«ANOR BANK» AJda kontragentlarni  
tekshirishga oid yo'riqnomaga  
2-ilova

**Minimal Due Diligence anketasi  
(past xavf darajasi uchun)**

Kontragent haqida ma'lumot

1. Kontragentning to'liq nomi (yuridik shaxs uchun):

\_\_\_\_\_

2. STIR (soliq to'lovchining identifikatsiya raqami): \_\_\_\_\_

3. Yuridik manzili: \_\_\_\_\_

4. Amaldagi manzili (agar farq qilsa): \_\_\_\_\_

5. Rahbarning F.I.Sh. va lavozimi: \_\_\_\_\_

6. Asosiy faoliyat turi (OKED bo'yicha): \_\_\_\_\_

7. Shartnoma summasi (taxminiy): \_\_\_\_\_ so'm

**Benefitsiar egalar haqida ma'lumot (25% va undan ortiq ulushga ega shaxslar)**

№	F.I.Sh.	Tug'ilgan sanasi	Fuqaroligi	Ulush (%)	Lavozimi (agar mavjud bo'lsa)
1					
2					
3					

Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida deklaratsiya

8. Kontragent rahbari yoki benefitsiar egalaridan birortasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va/yoki "ANOR BANK" AJ xodimi yoki uning yaqin qarindoshi hisoblanadimi?

Ha  Yo'q

(Agar "Ha" bo'lsa, qo'shimcha ma'lumot ko'rsating):

\_\_\_\_\_

9. Kontragentning rahbari yoki benefitsiar egalaridan birortasi so'nggi 2 yil ichida davlat xizmatida ishlaganmi?

Ha  Yo'q

10. Kontragentning korrupsiyaviy huquqbuzarliklari bo'yicha sud yoki ma'muriy ishlar mavjudmi?

Ha  Yo'q

**Yakuniy deklaratsiya**

Men, pastda imzo chekuvchi shaxs, yuqoridagi ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlayman va ularni o'zgartirish zarurati tug'ilganda Bankni darhol xabardor qilishga majburman.

**Kontragent rahbari / vakolatli shaxs:**

F.I.Sh. \_\_\_\_\_

Lavozimi \_\_\_\_\_

Imzo \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

«ANOR BANK» AJda kontragentlarni  
tekshirishga oid yo'riqnomaga

3-ilova

**Kengaytirilgan Due Diligence anketasi**  
(o'rta xavf darajasi uchun)

Kontragent haqida to'liq ma'lumot

1. Kontragentning to'liq nomi: \_\_\_\_\_
2. STIR: \_\_\_\_\_ OKED: \_\_\_\_\_
3. Yuridik manzili: \_\_\_\_\_
4. Amaldagi manzili: \_\_\_\_\_
5. Rahbarning F.I.Sh., lavozimi va telefon raqami: \_\_\_\_\_
6. Asosiy faoliyat turi va tajribasi (yillar): \_\_\_\_\_
7. Shartnoma summasi (taxminiy): \_\_\_\_\_ so'm
- Moliyaviy holat (oxirgi hisobot yili bo'yicha)
8. Yillik aylanma (daromad): \_\_\_\_\_ so'm
9. Sof foyda: \_\_\_\_\_ so'm
10. Asosiy vositalar qiymati: \_\_\_\_\_ so'm
11. Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik mavjudmi?  
 Yo'q  Bor (miqdori: \_\_\_\_\_)

**Benefitsiar egalar va rahbarlar haqida batafsil ma'lumot (25% va undan ortiq ulushga ega shaxslar)**

№	F.I.Sh.	Tug'ilgan sanasi	Fuqaroligi	Ulush (%)	Lavozimi (agar mavjud bo'lsa)
1					
2					
3					

Manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya xavfi

12. Kontragent rahbari yoki benefitsiar egalaridan birortasi ANOR BANK xodimi yoki uning yaqin qarindoshi hisoblanadimi?

Ha  Yo'q

(Agar "Ha" bo'lsa, qo'shimcha ma'lumot ko'rsating):

13. Kontragentning rahbari yoki benefitsiarlari so'nggi 3 yil ichida davlat xizmatida ishlaganmi?

Ha  Yo'q

14. Kontragent yoki uning rahbarlari / benefitsiarlari oldin korrupsiya, firibgarlik yoki boshqa iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha javobgarlikka tortilganmi?

Ha  Yo'q

15. Kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlari mavjudmi?

Ha  Yo'q (mavjud bo'lsa, nusxasini ilova qiling)

**Yakuniy deklaratsiya**

Men, pastda imzo chekuvchi shaxs, yuqoridagi barcha ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlayman va ular o'zgartirish taqdirida ANOR BANK AJni darhol yozma ravishda xabardor qilishga majburman.

**Kontragent rahbari / vakolatli shaxs:**

F.I.Sh. \_\_\_\_\_ Lavozimi \_\_\_\_\_

Imzo \_\_\_\_\_ Sana: \_\_\_\_\_

«ANOR BANK» AJda kontragentlarni  
tekshirishga oid yo'riqnomaga

4-ilova

**Chuqurlashtirilgan Due Diligence anketasi**  
(yuqori xavf darajasi uchun)

**Kontragent haqida to'liq ma'lumot**

1. Kontragentning to'liq nomi: \_\_\_\_\_

2. STIR: \_\_\_\_\_ OKED: \_\_\_\_\_

3. Yuridik manzili: \_\_\_\_\_

4. Amaldagi manzili: \_\_\_\_\_

5. Rahbarning F.I.Sh., lavozimi, telefon va email:  
\_\_\_\_\_

6. Asosiy faoliyat turi va tajribasi (yillar):  
\_\_\_\_\_

7. Shartnoma summasi (taxminiy): \_\_\_\_\_ so'm

**Moliyaviy holat (oxirgi 2–3 yil bo'yicha)**

8. Yillik aylanma (daromad):

202\_\_ yil: \_\_\_\_\_ so'm

202\_\_ yil: \_\_\_\_\_ so'm

202\_\_ yil: \_\_\_\_\_ so'm

9. Sof foyda:

202\_\_ yil: \_\_\_\_\_ so'm

202\_\_ yil: \_\_\_\_\_ so'm

10. Asosiy vositalar qiymati: \_\_\_\_\_ so'm

11. Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik mavjudmi?

Yo'q  Bor (miqdori va sababi: \_\_\_\_\_)

**Benefitsiar egalar va rahbarlar haqida chuqur ma'lumot (25% va undan ortiq ulushga ega barcha shaxslar)**

№	F.I.Sh.	Tug'ilgan sanasi	Fuqaroligi	Ulush (%)	Lavozimi (agar mavjud bo'lsa)
<b>Benefitsiarlar</b>					
1					
2					
3					
<b>Kontragent rahbari va uning o'rinbosarlari</b>					
1					
2					
3					

**Manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya xavfi (majburiy savollar)**

12. Kontragent rahbari yoki benefitsiar egalaridan birortasi ANOR BANK xodimi yoki uning yaqin qarindoshi hisoblanadimi?

Ha  Yo'q

(Agar "Ha" bo'lsa, batafsil ko'rsating):

---

13. Kontragentning rahbari yoki benefitsiarlari so'nggi 5 yil ichida davlat xizmatida, davlat kompaniyalarida yoki siyosiy lavozimlarda ishlaganmi?

Ha  Yo'q

14. Kontragent yoki uning rahbarlari / benefitsiarlari oldin korrupsiya, poraxo'rlik, firibgarlik, soliq jinoyatlari yoki boshqa iqtisodiy huquqbuzarliklar bo'yicha javobgarlikka tortilganmi?

Ha  Yo'q

(Agar "Ha" bo'lsa, qaysi ish va natijasi haqida ma'lumot bering):

---

15. Kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki siyosati / kodeksi / dasturi mavjudmi?

Ha  Yo'q (mavjud bo'lsa, nusxasini ilova qiling)

**Qo'shimcha ma'lumotlar (majburiy)**

16. Kontragentning so'nggi 3 yil ichidagi yirik shartnomalari haqida qisqacha ma'lumot (mijoz nomi, summasi, bajarilish holati):

---

17. Kontragentning bank hisob raqamlari, bank nomi va SWIFT-kodi:

---

**Yakuniy deklaratsiya**

Men, pastda imzo chekuvchi shaxs, yuqoridagi barcha ma'lumotlarning to'g'riligini va to'liqligini tasdiqlayman. Ma'lumotlarda o'zgarish bo'lgan taqdirda ANOR BANK AJni darhol yozma ravishda xabardor qilishga majburman.

**Kontragent rahbari / vakolatli shaxs:**

**F.I.Sh.** \_\_\_\_\_

**Lavozimi** \_\_\_\_\_

**Imzo** \_\_\_\_\_

**Sana:** \_\_\_\_\_

*«ANOR BANK» AJda kontragentlarni  
tekshirishga oid yo'riqnomaga  
5-ilova*

**KORRUPSIYAGA QARSHI DUE DILIGENCE TEKSHIRUVI BO'YICHA XULOSASI**

**1. Kontragent haqida umumiy ma'lumot**

Kontragentning to'liq nomi: \_\_\_\_\_

STIR: \_\_\_\_\_

Yuridik manzili: \_\_\_\_\_

Amaldagi manzili: \_\_\_\_\_

Shartnoma / hamkorlik summasi (taxminiy): \_\_\_\_\_ so'm

Shartnoma / hamkorlik turi: \_\_\_\_\_

Hujjatlar olingan sana (Due Diligence tekshiruvini boshlash uchun): \_\_\_\_\_

**2. Xavf darajasi va tekshiruv turi**

Korrupsiyaviy xavf darajasi:

Past  O'rta  Yuqori

Tekshiruv turi:

Minimal Due Diligence  Kengaytirilgan Due Diligence  Chuqurlashtirilgan Due Diligence

Tekshiruv o'tkazilgan sana: \_\_\_\_\_

**3. Tekshiruv natijalari**

№	Tekshiruv yo'nalishi	Natija		Izoh / Aniqlangan xatarlar
		Ijobiy	Salbiy	
1	Ta'ris hujjatlari va vakolatlarni tekshirish	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	
2	Benefitsiar egalarini identifikatsiya qilish	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	
3	Manfaatlar to'qnashuvini tekshirish	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	
4	Ochiq manbalarda obro' va salbiy ma'lumotlar	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	
5	Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar tarixi	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	
6	Moliyaviy holat va resurslar	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	
7	Boshqa yo'nalishlar	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	

**4. Aniqlangan korrupsiyaviy xatarlar va ularni baholash**

<b>№</b>	<b>Korrupsiyaviy xavf-xatar (tavsifi)</b>	<b>Ehtimolligi</b>	<b>Oqibatlari</b>	<b>Rang (darajasi)</b>	<b>Mavjud nazorat choralari (amaldagi)</b>
1					
2					
3					
4					
5					

**5. Yakuniy xulosa va tavsiya**

Hamkorlikka tavsiya etiladi

Qo'shimcha nazorat choralari qo'llagan holda hamkorlikka tavsiya etiladi

Hamkorlikka tavsiya etilmaydi

Qo'shimcha nazorat choralari (tavsiya etiladigan):

---

**Tekshiruvni o'tkazgan xodim:**

F.I.Sh. \_\_\_\_\_

Lavozimi \_\_\_\_\_

Imzo \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

**Tasdiqlagan:**

**Komplayens-nazorat boshqarmasi rahbari**

F.I.Sh. \_\_\_\_\_

Imzo \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

### Kontragentlarni/kontragentlarni tekshirish reestri

№	Tekshiruv so'rovi olingan sana	Tashabbuskor bo'linma (F.I.Sh., lavozim)	Kontragentning to'liq nomi	STIR / Identifikator	Hamkorlik maqsadi / Shartnoma turi	Xavf darajasi	Tekshiruv turi	Tekshiruv o'tkazilgan sana	Xulosa (tavsiya)	Komplayens xodimi (F.I.Sh.)	Izohlar
1											
2											
3											
4											
5											

Bu bank aktivlarini himoya qilish va talablarga rioya qilish uchun zaruriy ekspertiza, pul mablag'lari manbalarini tekshirish va operatsiyalarni muntazam monitoringini o'z ichiga oladi.

Tegishli tekshiruv (KYC): ICS mijozingizni bilish (KYC) choralarini ko'rishni ta'minlaydi, jumladan, benefisiar egalarni aniqlash va obro'sini tekshirish.

Muvofiqlik: kontragentlar tomonidan terrorizmni moliyalashtirish va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan ichki nazorat qoidalariga rioya etilishini tekshirish.

Tranzaksiya monitoringi: kontragent faoliyatini tizimli tahlil qilish, ayniqsa, chet el valyutasini sotib olish yoki noodatiy operatsiyalarni amalga oshirish, nazoratni kuchaytirishni talab qiladi.